

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70610302- “Elektron hukumat” tizimini boshqarish magistratura
mutaxassisligining malaka talablari*

MALAKA TALABI

Toshkent - 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “1” avgust dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

t/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	5
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	5
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	6
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	6
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	8
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	10
	Bibliografik ma’lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i	12

1. Umumiy tavsifi

70610302- “Elektron hukumat” tizimini boshqarish magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit - modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanilish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70610302- “Elektron hukumat” tizimini boshqarish mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun majburiy talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘kuv dasturlarini ishlab chikish va yangilash, ular asosida o‘kuv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshligi, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o‘kuv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘kishga kirayotgan bakalvriat bitiruvchilari va boshka manfaatdor shaxslar.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi mutaxassislik bo‘yicha tahsil olgan magistr talabalari;

bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ulaming ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda professional ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitish, Mahalliy va davlat boshqaruv organlari faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, jamiyat boshqaruvini raqamlashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari (ITI), bioinformatika, biomeditsina, axborot iqtisodiyoti, ijtimoiy media va ijtimoiy tarmoq tahlili sohalaridagi ilmiy-tadqiqot muassasa (ITM) va tashkilotlarida, markazlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ma’lumotlar ilmi va kompyuter injiniringi sohasida kompleks masalalarni yechish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qabrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

- oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlar tizimi;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya boshqaruvi organlarida, mudofaa va xavfsizlik organlarida boshqaruv jarayonlari;

- iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, holding, ishlab chiqarish birlashmalarida faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- elektron hukumat to‘grisdagi bilimlarining nazariy asoslarini. Elektron hukumatning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, turli shakllanish va rivojlanish jarayonlarini boshqarish shakl va usullarini takomillashtirishni, mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va milliy xavfsizlikni ta’minlashni, elektron hukumatga oid qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish;

- Elektron hukumat tizimini boshqarish jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil fikrlashni, kelajakda o‘zlashtirgan

bilimlarni ishlab chikishni va ilmiy-tadqiqot ishlarda qo‘llash jarayonlari;

- Elektron hukumat tizimida logistika masalalari va davlat boshqaruv organlari faoliyatida axborot boshqaruv tizimini joriy etish;

- Elektron hukumat rivojida elektron raqamli imzoni qo‘llash va davlat boshkaruvida joriy etish jarayonlari;

- dasturiy maxsulotlar va xisoblash texnikasining apparat vositalarini elektron hukumat interaktiv xizmatlariga joriy etish va amaliyotga tatbik kilishning samarali jarayonlari;

- o‘quv jarayoni;

- ilmiy-tadqiqot jarayoni.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy faoliyat;*

- *axborot-taxliliy faoliyat;*

- *tadbirkorlik faoliyat;*

- *loyihavii-konstruktorlik faoliyat;*

- *tashkiliy-boshqaruv faoliyat.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70610302- “Elektron hukumat” gizimini boshkarish mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7- malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq magisgratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil kilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va taxrir kilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharxlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmogida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriklarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chikish;

Axborot-taxliliy faoliyatda:

- boshkaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘grisidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayga ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish. Faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot

to‘plash. Tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yuritish;
- loyixalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chikish va amalga oshirish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

- xizmat ko‘rsatish sohalarini avtomatlashtirish, onlayn xizmatlarni loyihalash va joriy etish, davlat boshqaruvidagi axborot tizimlari ishlab chikish kobilyatiga ega bo‘lishi;

- namunaviy texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ishlab chikish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim

- bajarilayotgan tajriba va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, axborot va imitatsion, konseptual modellarni ishlab chiqishi va amalda tadqiq qilishi;

- namunaviy hukumat tizimi jarayonlarini elektronlashtirish modellarini ishlab chikishi va ularni amalda qo‘llashi;

- loyihaviy va dasturiy elektron hujjatlarni ishlab chiqishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chikarishni tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni ragbatlantirish tizimini yo‘lga ko‘yish;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ekt iqtisodiy xavfsizlik faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, huquqiy hamda me‘yoriy-huquqiy hujjatlar;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy xavfsizlik sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni to‘plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniklash;

- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat

ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy xavfsizligini rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyixaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informativ va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

- ilmiy va ilmiy-texnikaviy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyatida foydalana olishi, asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyatida foydalana olishi;

- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;

- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishi;

- ta'lim, ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyati sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

- ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

- patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda ma'lumotlar ilmini qo'llay bilishi;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ma'lumotlar ilmidan foydalanishda, ularga ta'sir;
- etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishni qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot - umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ishlab chiqarish hamda ilmiy tadqiqot jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Mutaxassislik bo'yicha ilmiy amaliyot o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogini tuzilishi

Magistrantlar o'quv jarayoni davomida dual ta'lim olish imkoniyatlari va majburiyatlari batafsil yoritiladi.

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1200	40	1-3
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	AIA1104	Axborotlarni izlash va ajratib olish	120	4	1
1.03	ILB1204	Innovatsiya va loyihalarni boshqarish	120	4	2
1.04	ALT1204	Algoritmnlarni loyihalashtirish va tahlil qilish	120	4	2
1.05	MFO1304	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
1.06	ELH1206	Elektron hukumat	180	6	2
1.07	EHT1306	Elektron hukumat tizimida foydalanishni boshqarish va foydalanuvchilar identifikatsiyasi	180	6	3
1.08	IPI1108	Ilmiy pedagogik ish	240	8	1,2,3
2.00		Tanlov fanlar	480	16	1,3
		Jami:	1680	56	1-3
Kvalifikatsiya		Muhandis-dasturchi, pedagog-tadqiqotchi.			
	ILA1412	Ilmiy amaliyot	360	12	4
	MDH1152	Magistrlik dissertatsiyasini tayorlash	1560	52	1-4
		Jami:	1920	64	1-4
		Jami	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, elektron hukumat, interaktiv xizmatlar, veb sayt va veb portallar, axborot resurslari, konfidensiallik, elektron hukumat modellari, mijozlar, elektron tijorat, elektron to'lov, elektron raqamli imzo, axborotlashtirish mutahassisligi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, axborot, axborot texnologiyalari, axborot tizimlari, dastur, dasturlash, dasturlash texnologiyalari, algoritmlar, tarmoq, global, korporativ va lokal tarmoqlar, kompyuter tizimlari, marshrutizatorlar, shlyuzlar protokollar, interfeys, ma'lumotlar tuzilmalari, axborot xavfsizligi, axborotni himoyalash, axborotni konfidensialligi, tahlillovchilar, tizimli dasturlar, ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlar modellari, infologik va relyatsion modellar, matematik model, modellashtirish, operatsion tizimlar, fayl tizimlari, xotira, virtual jarayonlar, jarayon holati, boshqarish, boshqarish ob'ektlari, suni'y intellekt, suni'y intellekt tizimlari, ekspert tizimlari, tizim tuzilmasi, ob'ektli dasturlash, vorislik, polimorfizm, multimedia, multimedia tizimlari, multimedia texnologiyalari.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILGAN:

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Rektor  **B. Maxkamov**

M.O. 2024 yil « 14 » iyun



KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Direktor  **M. Boltabayev**

Rektor  **T. Teshabayev**



M.O. 2024 yil « 1 » avgust

M.O. 2024 yil « 14 » iyun

**Toshkent shahridagi
Amity universiteti**

**Raqamli hukumat loyihalarini
boshqarish markazi**

Direktor  **B. Abdullayev**

Direktor  **A. Muxitdinov**

M.O. 2024 yil « 13 » iyun

M.O. 2024 yil « 13 » iyun

